

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK:338.45:91:33 (575.1)

MUXAMEDOVA MOXIGUL XUSANOVNA

**Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish
ko'rsatkichlari tahlili
(Toshkent shahri misolida)**

5A232301 - «Mintaqaviy iqtisodiyot» mutaxassisligi

Magistr

**akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

i.f.n., dots. S. Abdurahimova

TOSHKENT-2021

АННОТАЦИЯ

Диссертацияда Республикамиз ва Тошкент шаҳри иқтисодиётида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ўрни кенг ёритилган. Иқтисодий фаолият турлари бўйича ЯИМда кичик бизнеснинг улуши таҳлил қилинган. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликка таъсир этувчи омиллар гуруҳлари ва саноат тармоғи, қишлоқ хўжалиғи, қурилиш тармоғи, асосий капиталга қиритилган инвестициялар таҳлил қилинган. Шунингдек, диссертацияда кичик корхона ва микрофирмаларнинг ривожланиш истикболи бўйича иқтисодий вазиятлар баҳоланган.

ABSTRACT


In the dissertation the role of small business and private entrepreneurship in the economy of the republic and the city of Tashkent is highlighted. The share of small business in GDP is analyzed by type of economic activity. The groups of factors influencing small business and private entrepreneurship and investments in the industrial sector, agriculture, construction, fixed capital are analyzed. The dissertation also provides an assessment of the economic situation from the point of view of the prospects for the development of small businesses and microenterprise.

АННОТАЦИЯ

В диссертации освещается роль малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике республики и города Ташкент. Проанализирована доля малого бизнеса в ВВП по видам экономической деятельности. Проанализированы группы факторов, влияющих на малый бизнес и частное предпринимательство и инвестиции в промышленный сектор, сельское хозяйство, строительство, основной капитал. В диссертации также дается оценка экономической ситуации с точки зрения перспектив развития малого бизнеса и микропредприятий.

Магистрлик диссертация иши “Макроиқтисодий таҳлил прогнозлаштириш” кафедрасида дастлабки химоядан ўтган. ____ - сон баённома» _____» _____ 2021 й.


Илмий раҳбар: и.ф.д. Абдурахимова С.А.



имзо

сана

Магистр: Мухамедова М.Х.



HUDUDLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI

(Toshkent shahri misolida)

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining nazariy uslubiy asoslari.....	7
1.1.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining milliy iqtisodiyotda tutgan o'ri.....	7
1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	14
1.3 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda xorij tajribasi.....	19
II BOB. Toshkent shahridagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi holatining iqtisodiy tahlili.....	27
2.1. Toshkent shahri iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ri.....	27
2.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.....	36
2.3. Toshkent shahrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning tahlili.....	41
III BOB. Toshkent shahrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari.....	48
3.1. Toshkent shahrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlarida investitsiyalardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	48
3.2. Toshkent shahrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sanoat iqtisodiy zonalarida shakllantirish va ularning istiqbollari.....	54
Xulosa va takliflar.....	63
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	65

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Milliy iqtisodiyotda muhim o'rin egallab borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish hamda bu orqali ichki bozorni raqobatbardosh, sifatli va eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda buning asosida aholi daromadlarini ko'paytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda, bu soha davlat byudjetiga soliq to'lov tushumlari hajmining ko'payishi va iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi hisoblangan yalpi ichki mahsulot salmog'ining oshishiga asosiy turtki bo'lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati jamiyatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning tayanchiga hamda asosiy kuchiga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizning iqtisodiy islohatlarini bosqichlarida iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilmasida tub o'zgarishlarga asos solishdan iborat g'oyat muhim masala bu tadbirkorlik va xususiy biznesni tashkil etish va rivojlantirishdir.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun qator iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev mazkur korxonalar faoliyati borasida shunday degandilar: "2018 yil 5 oktyabrdagi Farmon bilan tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama ximoya qilish va ishbilarmonlik muxitini sifat jixatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Tajribali va malakali mutaxassislar tomonidan yangitdan tayyorlangan mazkur davlat dasturi bu borada qabul qilingan qonun hujjatlari talablariga so'zsiz amal qilinishini ta'minlashga qaratilgan. U davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu sohaning huquq va kafolatlarini himoya kilishni yanada kuchaytirish, tadbirkorlar faoliyatini asossiz tekshirishlarga chek